

## MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILAR FAOLLIGINI TA'MINLASHDA YORDAM BERADIGAN USUL VA TAVSIYALAR

Eltazarov Qodir G'aniboy o'g'li

Jizzax viloyati Forish tumani 21-umumiy o'rta ta'lif maktabi  
matematika fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada matematika darslarida o'quvchilar faolligini ta'minlashda yordam beradigan usul va tavsiyalar haqida yoritilgan bo'lib, unda o'quvchilarni qiziqtiruvchi usullar bo'yicha uslubiy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** bilim, ta'lif-tarbiya, ilm-fan, pedagog xodimlar, mantiqiy...

Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston hududida qadim zamonlardan beri fan va madaniyat rivojlanib kelayotgan davlatdir. Xususan, astronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo, tarix, falsafa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik kabi fanlar va haykaltaroshlik, to'qimachilik, kulolchilik, shishasozlik va boshqa kasblar keng rivojlangan. Hozir O'zbekiston olimlari uzoq o'tmish mutafakkirlari qoldirgan ilmiy merosni faol o'rganib, o'zlarining yangi kashfiyotlari bilan fanni boyitgan holda jahon fani rivojiga munosib hissa qo'shamoqdalar.

Matematika fani ham bizning ulug' ajdodimiz Al-Xorazmiy nomi bilan bog'liqligi bizni quvontiradi, albatta. Shu o'rinda ushbu buyuk allomamiz bilan bog'liq qiziqarli va mantiqiy savollarni keltirishni joiz topddim.

9 gacha bo'lgan raqamlardan shunday sonlar hosil qilingki, uning 9 ga bo'lganda, bo'linma: 1,2,3,4,5,6,7,8,9 chiqsin.

9 ga shunday sonni ko'paytiringki. ko'paytma 9 bo'lsin.

Shunday sonni topingki, uning o'z-o'ziga ko'paytmasi 9 bo'lsin.

Shunday sonni topingki, unga 10 ni qo'shgach 10 ga bo'lsin 9 chiqsin.

Qaysi songa 9 qo'shilsa, yig'indi 9 ga teng bo'ladi?

Maktablarda 9 oyda boshlanadigan o'quv yili necha oy davom etadi?

Qaysi sondan 19 ni ayirib 9 ga bo'lsak, 9 chiqadi?....

Bu kabi mantiqiy savollar matematika fanida juda ko'p uchraydi.

Matematika fanlar ichida eng murakkabi bo'lib, bu fan pedagoglardan mas'uliyatni, o'quvchilarni ushbu fanga qiziqtirish usullari o'ylab topishni talab etdi. Shundan so'ng noan'anaviy ta'limga, zamonaviy texnologiyalarga ehtiyoj sezildi. Shu maqsadda, qator interfaol usullar yaratildi.

**Quyida matematika darslarida qo'llanadigan noan'anaviy ta'lif usullaridan ba'zilarini taqdim etishni joiz topdim.**

**"Masala va yechim" usuli.** Bu usul bilan dars o'tilganda o'quvchilar olgan bilimlari asosida hali o'rganilmagan kichik bir masala ustida yakka yoki bирgalashib izlanish olib borishadi, masala yechimiga doir keltirilgan taxminni izlab topilgan dalillar asosida to'g'ri yoki noto'g'rilibini tekshirishadi va isbotlashadi. Bunda darsda hammaga qiziqish uyg'otadigan mavzu haqidagi masalani qo'yish orqali uni o'rganish, tadqiq qilish uchun ma'lumotlar to'plash, tahlil qilish va isbotlash, xulosa chiqarish ko'nikmalari shakllantiriladi.

O'quvchilarni matematika faniga qiziqtirish, befarq qaramasligini ta'minlash har bir bugungi kun pedagogining vazifasi hisoblanadi. Matematika fanida to'rt amalning bajarilishini o'rgatish bilan birga shakllar, ular tuzilishi, farqini va o'lchamini o'rgatish zaruriyati ham ahamiyatga ega.

Matematika darslarini samarali tashkil etishda “**Aql charxi**” usulidan foydalanish ham juda samara beradi. Bu usulda o'quvchilarning darslar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlashdan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rganish uchun xizmat qiladi.

### **“KEYS-STADI” yoki “Aniq vaziyatlarni tahlil qilish” usuli.**

Keys (vaziyat) - ishlab chiqarishda sodir bo'ladigan, real muammoli vaziyatning tafsilotidir.

“Keys-stadi” metodi - ishlab chiqarish masalalarini mashg'ulotlarda tahlil qilish, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirish metodi hisoblanadi.

### **“KEYS-STADI” metodining tuzilmasi**

Topshiriq bilan tanishtirish, uni bajarish muddatini belgilash va baholash tizimini e'lon qilish

Ta'lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratish va topshiriqlar taqsimlash

Kichik guruhlarda vaziyatlarni tahlil qilish

Kichik guruhlarda vaziyatlarni hal etish yo'llarini ishlab chiqish

Muhokama, tahlil qilish va baholash

O'quvchilarning bilim, o'quv hamda malakalarini nazorat qilishning eng muhim vazifasi ularni o'quv mashg'ulotlarini mas'uliyat va halollik bilan bajaradigan qilib tarbiyalashdan iborat. Tajribali o'qituvchilar o'quvchilarning o'quv ishidagi muvaffaqiyatlarini shunday nazorat qiladilarki, natijada o'quvchilarning o'qishga qiziqishi ortadi, bilim, o'quv hamda malakalari chuqurlashadi, muntazam ravishda mehnat qilish va intizomli bo'lishga o'rganadilar, bilish faoliyatları kuchayadi.

**“Amaliy mashg'ulot” usuli.** Bunda o'qituvchi bir guruh o'quvchilarning ko'nikmalarini to'liq yoki qisman shakllantiruvchi amaliy faoliyat orqali o'qitishni xohlasa bu usuldan foydalanishi mumkin. Odatta bu jarayon o'z ichiga so'zlash, tasviriy ifoda va o'qituvchi tomonidan namoyish etish va muhokamalarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Shu bilan birga,

bu jarayon materiallar va maxsus jihozlardan foydalanish imkonini bo'lgan ustaxonalarda amalgaga oshiriladi.

Xullas, maktablarda matematika va unga aloqador fanlardan o'quvchilar bilimini tekshirish- bu o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimning sifatini aniqlash, ularni o'quv dasturida belgilangan materialarni izchil va puxta o'zlashtirib olishga da'vat etish vositasidir. O'qituvchi bilimlarni tekshirish orqali o'quvchining o'quv materialini qanday idrok etib tushunganligini, qanday fikr yuritayotganligini, dasturda belgilangan o'quv materialarni qay darajada o'zlashtirib olganligini aniqlaydi hamda keyingi o'quv materialarni o'rganish, ta'lif sifatini yaxshilash yo'llarini belgilaydi. Shu bilan birga o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini o'rganish va tekshirish, ularning o'qishga bo'lgan munosabatini, tirishqoqligini, o'ziga talabchanligini, bilimga, fanga bo'lgan qiziqishini bilishga imkon beradi.

### **FOYDALANADIGAN ADABIYOTLAR:**

1. R.A. Habibullayev "O'quvchilarning matematik tafakkurini shakllantirish"  
T-O'qituvchi, 2012-y
2. Umirbekov A.U., Shoabdakov SH.SH. Matematikani takrorlash –Toshkent:  
«O'qituvchi», 1989-yil.
3. Internet saytlari: [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz), [www.edu.uz](http://www.edu.uz).